

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

KASBIY TA'LIM TASHKILOTI O'QUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA BAHOLASHNING PEDAGOGIK YO'LLARI

Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti, mustaqil izlanuvchi, dotsent.

e-mail: b.shoyqulov1970@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7008-465X>

Annotatsiya.

Maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni kasbiy, ilmiy va pedagogik ko'nikmalarini kredit-modul asosida baholashning pedagogik shart-sharoitlari, yo'llari va texnologiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek kasbiy ta'limda o'quvchilar bilimni kredit-modul tizimi asosida baholashning xorij va milliy ta'lim moduli asosida tahlil qilish va rivojlantirish istiqbollari ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim tashkiloti, o'quvchi, kredit-modul, pedagogik shart-sharoit, kasbiy kompetensiya, o'quv platforma, masofaviy baholash, raqamli portfoliya, differensial yondashuv, raqamli diagnostika.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Шойкулов Бахтиёр Бакирович

Институт развития профессионального образования, независимый исследователь, доцент.

Аннотация.

В статье проводится научный и теоретический анализ педагогических условий, методов и технологий оценки профессиональных, научных и педагогических навыков студентов в организациях профессионального образования на основе кредитного модуля. Также показаны перспективы анализа и развития оценки знаний студентов в профессиональном образовании на основе кредитной модульной системы, построенной на основе зарубежных и национальных образовательных модулей.

Ключевые слова: организация профессионального образования, студент, кредитный модуль, педагогические условия, профессиональная компетентность, учебная платформа, дистанционная оценка, цифровое портфолио, дифференцированный подход, цифровая диагностика.

PEDAGOGICAL METHODS FOR ASSESSING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON A CREDIT-MODULE SYSTEM

Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich

Institute for the Development of Professional Education, Independent Researcher, Associate Professor.

Abstract.

This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical conditions, methods, and technologies for assessing students' professional, scientific, and pedagogical skills in vocational education institutions based on a credit module. It also presents prospects for analyzing and developing student assessment in vocational education based on a credit modular system, built on international and national educational modules.

Keywords: vocational education institution, student, credit module, pedagogical conditions, professional competence, learning platform, remote assessment, digital portfolio, differentiated approach, digital diagnostics.

Kirish. Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kredit-modul tizimida baholashning pedagogik imkoniyatlari va pedagogik yo'llari zamonaviy ta'lim islohotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki kredit-modul tizimi ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish, o'quvchining mustaqil faolligini oshirish, baholashning shaffofligini ta'minlash va kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur masala ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kredit-modul tizimida kasbiy kompetensiyalarni baholash samaradorligi, eng avvalo, tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik hamda moddiy-texnik shart-sharoitlarning izchil ta'minlanishiga bog'liqdir. Tashkiliy-pedagogik chora-tadbirlarning rejalashtirilgan holda amalga oshirilishi o'quv jarayonini modul tamoyillari asosida tashkil etish, kompetensiyalarni aniq belgilash va baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali natijaviylikni oshirishini ko'rsatadi. Bu esa

ta'lim jarayonida baholashning shaffofligi, obyektivligi hamda monitoring samaradorligining ortishiga zamin yaratadi. Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kredit-modul tizimida baholash katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, u natijaga yo'naltirilganlik, individuallashtirish, bosqichma-bosqich monitoring va amaliy baholashni ta'minlaydi. Biroq uning samaradorligi kompetensiyaviy dasturlar, tayyor pedagog kadrlar, zamonaviy infratuzilma, raqamli muhit va ish beruvchilar bilan hamkorlik kabi pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq. Shu asosda tashkil etilgan baholash tizimi raqobatbardosh, kasbiy jihatdan tayyor va mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kredit-modul tizimi asosida baholash masalasi respublikamiz va xorijlik olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan o'z tadqiqotlarida tahlil qilinib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslab kelinmoqda. Bu borada xorijlik olimlar A. Kolb David, Biggs John, K. Collis, Spencer Lyle M. va S. M. Spencer pedagogik imkoniyatning asosiy komponentlarini quyidagi asosda tahlil qilganlar [1, 2, 3]:

1. **Didaktik imkoniyatlar:** fan mazmunining shaxs rivojlanishidagi salohiyati, metod va usullarning o'quvchining kognitiv, ijodiy hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari.
2. **Tarbiyaviy imkoniyatlar:** o'quv jarayonining tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lishi, ijtimoiy-axloqiy fazilatlarining shakllanishi.
3. **Rivojlantiruvchi imkoniyatlar:** shaxsning aqliy, kasbiy va kommunikativ salohiyatini kengaytirish, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash.
4. **Texnologik imkoniyatlar:** AKT, masofaviy ta'lim, interaktiv metodlar va raqamli platformalarning qo'llanilishi.
5. **Ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar:** jamiyat, oila va muhitning ta'limga qo'shgan hissasi, hamkorlik, amaliyot hamda loyihaviy faoliyatlar.

Shuningdek, rus olimlari A. A. Verbiskiy, I. A. Zimnyaya va A. V. Xutorskoy pedagogik imkoniyatlarni ta'lim mazmuni, metodlari, texnologiyalari hamda shart-sharoitlari orqali ta'lim oluvchilarning shaxsi, bilimlari, ko'nikmalari va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi potensial imkoniyatlar majmuasi sifatida ishlab chiqqanlar. Ular mazkur imkoniyatlar to'g'ri yo'naltirilganda yuqori ta'lim samaradorligiga erishishga yordam berishini tahlil qilganlar [4, 5, 6].

V. M. Monaxov pedagogikada «shart» tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun zarur bo'lgan tashqi yoki ichki omillar majmui sifatida tahlil qilgan. Ushbu omillar o'quv faoliyatining samaradorligi, o'quvchi shaxsining rivojlanishi, pedagogik maqsadlarning ro'yobga chiqishi hamda o'qitish jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi obyektiv va subyektiv holatlar sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik shartlar o'qitish jarayonining tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metodlari, motivatsiyasi va psixologik muhitini belgilab beradigan, ta'lim jarayonining ichki mexanizmlarini faollashtiradigan omillar yig'indisidir [7].

Ye. V. Yakovlev va N. O. Yakovlevalar esa pedagogikada shartni ta'lim jarayonining mazmuni va natijalarini belgilab beruvchi, o'qitish jarayonining samarali amalga oshishi uchun zarur bo'lgan tashqi va ichki omillar majmui sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, mazkur omillar ta'lim-tarbiya faoliyatining qonuniy rivojlanishi, tarkibiy birliklarining uyg'unlashuvi hamda pedagogik maqsadlarning ro'yobga chiqishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [8].

A. P. Panfilova sharoitlarni pedagogik tizimning asosiy komponentlaridan biri sifatida baholab, ularning o'quv jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatlar imkoniyatlarini belgilab berishini ta'kidlaydi. Masalan, innovatsion texnologiyalar joriy etilayotgan muhitda o'quvchi faolligi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari hamda axborot resurslaridan foydalanish madaniyati rivojlanadi. Aksincha, sharoitlarning yetishmovchiligi ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi, o'zlashtirish darajasini cheklaydi va o'quvchi faolligini susaytiradi [9].

V. I. Desyatov tadqiqotlarida pedagogik shart-sharoitlar o'quv jarayonining tashkiliy, metodik va psixologik jihatlarini uyg'unlashtiruvchi kompleks kategoriya sifatida talqin etiladi. U shart-sharoitlarni o'quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tamoyillar majmui sifatida ko'rib, ta'lim natijalari bilan ularning uzviy bog'liqligini asoslaydi [10].

A. P. Belyayeva pedagogik shart-sharoitlarni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini faollashtiruvchi omillar tizimi sifatida baholab, ularni psixologik iqlim, muloqot madaniyati hamda ta'lim muhitining insonparvarligi bilan bog'liq holda tahlil qiladi [11].

E. V. Yakovlev va N. O. Yakovlevalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik shart-sharoitlar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, ta'lim texnologiyalarini qo'llash hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, pedagogik, psixologik va tashkiliy komponentlar sifatida asoslanadi. Ularning fikricha, sharoitlarning optimalligi o'quv faoliyati natijalarining sifati va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [8].

M. V. Aliyeva esa pedagogik sharoitlarni ta'lim mazmuni, o'qitish uslublari, tashkiliy omillar va ta'lim vositalarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan didaktik imkoniyatlar majmui sifatida talqin qiladi [12].

V. M. Monaxov ishlarida pedagogik shart-sharoitlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi boshqaruv, metodik ta'minot, texnologik qo'llab-quvvatlash va o'qituvchi kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish bilan bog'liq jihatlar doirasida tahlil etiladi. Olimning fikricha, o'quv jarayonida shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishi o'quv faoliyatining motivatsion, kognitiv va faoliyatga yo'naltirilgan aspektlarini bir butun holda faollashtiradi [7].

Mahalliy tadqiqotchilardan N. A. Muslimov pedagogik shart-sharoitlarni bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida muhim omil sifatida ko'rib, ularni ta'lim jarayonining tashkiliy-metodik asoslari hamda amaliy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq holda o'rgangan [13].

Z. K. Ismoilova esa shart-sharoitlarni ta'lim tizimida shaxsning faoliyatga yo'naltirilgan rivojlanishiga yordam

beradigan tashqi omillar sifatida baholab, pedagogik shart-sharoitlarning o'quv jarayonida integrativ yondashuvni qo'llashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [14].

U. B. Begimqulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik shart-sharoitlar raqamli ta'lim muhiti, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda innovatsion metodlarni joriy etish bilan bog'liq holda o'rganilgan [15]. U shart-sharoitlarni yaratishda ta'lim platformalari, AKT vositalari va masofaviy ta'lim modellari hamda ta'sirini ilmiy asoslagan [16].

Tahlil va natijalar. Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kredit-modul tizimida baholashning pedagogik imkoniyatlari ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan, natijaga qaratilgan mazmunda tashkil etishga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimi o'quv dasturi mazmunini modullarga bo'lib, ularni kompetensiyalarga mos baholash tamoyiliga tayanadi. Mazkur tizimning asosiy ustunligi shundaki, u o'quvchining individual o'sishini, mustaqil o'qish darajasini hamda kasbiy malakalarning bosqichma-bosqich shakllanishini aniqlashga yordam beradi. Kredit-modul tizimi kompetensiyalarni baholashda integrativ yondashuvni taqozo etadi. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar, mehnat faoliyatida zarur bo'lgan kasbiy malakalar, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar ham kompleks tarzda qamrab olinadi. Bu jarayon o'quvchining faqat yakuniy natijasini emas, balki faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan moslashuvchanlik, mas'uliyat, tashabbuskorlik kabi shaxsiy fazilatlarini ham hisobga olish imkonini beradi. Shu bois kredit-modul tizimi o'quv-bilish jarayonini reproduktiv faoliyatdan produktiv faoliyatga o'tkazishga xizmat qiladi.

Mazkur tizimning pedagogik imkoniyatlarini bir necha yo'nalishda ko'rish mumkin. Avvalo, u o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, har bir modul bo'yicha aniq maqsad, kutilgan natija va baholash mezonlarini belgilash orqali o'quvchi faoliyatini tartibga soladi. Bunda kompetensiyalarni baholash mezonlari indikator sifatida shakllantiriladi. Ular motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu esa baholashning shaffofligi, obyektivligi va tizimlilikini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kredit-modul tizimi o'quvchilarning mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytiradi. Har bir modul bo'yicha mustaqil ishlar, loyihaviy topshiriqlar hamda amaliyot jarayonidagi natijalar alohida baholanadi. Bu jarayon o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim bo'lgan mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini ishlab chiqish kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Uchinchidan, kredit-modul tizimi baholash jarayoniga raqamli texnologiyalar vositalarini jalb qilish imkonini beradi. Elektron o'quv platformalari, masofaviy baholash vositalari, raqamli portfoliolar, monitoring va teskari aloqa tizimlari o'quvchi faoliyatini uzluksiz kuzatish va diagnostika qilishga yordam beradi. Bu esa kasbiy o'sishni individual yo'nalishda boshqarish, o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, kredit-modul tizimi ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliyot jarayonini integratsiyalashga keng yo'l ochadi. Modul yakunida kompetensiyalarni baholashda real ishlab chiqarish muhitida bajarilgan vazifalar, portfolio materiallari hamda ish beruvchining fikri ham inobatga olinadi. Bu esa o'quvchi kompetensiyasining mehnat bozori ehtiyojlariga mos shakllanishiga yordam beradi.

Beshinchidan, kredit-modul tizimi kompetensiyalarni baholashda differensial yondashuvni qo'llash imkonini beradi. O'quvchilarning individual qobiliyati, tayyorgarligi va o'sish dinamikasiga ko'ra baholash tizimi moslashtiriladi. Bu esa o'quvchilarni raqobatbardosh kadrlarga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman, kredit-modul tizimida kasbiy kompetensiyalarni baholash pedagogik jarayon sifatini oshirish, ta'lim mazmunini kompetensiyaga yo'naltirish, o'quvchilarda kasbiy mustaqillik, amaliy ko'nikma va moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur tizim o'quvchiga o'zining kasbiy rivojlanish trayektoriyasini individual ravishda belgilash, bosqichma-bosqich baholanish va teskari aloqa asosida takomillashib borish imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik imkoniyatlarning to'g'ri aniqlanishi va ular asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarga aniq yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagogik imkoniyatlarni izchil amalga oshirish natijasida o'quv jarayonida kompetensiyaga yo'naltirilgan mazmun yaratiladi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etiladi. Mustaqil ta'lim hamda raqamli platformalar bilan ishlash imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, baholash jarayonining shaffofligi, o'quvchiga individual yondashuv, ishlab chiqarish bilan hamkorlikda amaliy tayyorgarlikning yo'lga qo'yilishi kabi omillar barkamol mutaxassislarni tayyorlashning mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Umuman olganda, pedagogik imkoniyatlarning amalga oshirilishi kasbiy ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarni real mehnat bozoriga mos kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik hamda mas'uliyatni kuchaytirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu esa zamonaviy ta'limning strategik maqsadlariga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Pedagogik shart-sharoitlarning pedagogik imkoniyatlarga ta'siri, avvalo, ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik imkoniyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan potensial resurslar majmuini ifodalasa, pedagogik shart-sharoitlar ana shu imkoniyatlarning hayotga tatbiq etilishi uchun zarur bo'lgan real tashkiliy-metodik, psixologik-pedagogik, moddiy-texnik hamda ijtimoiy-ma'naviy omillar yig'indisidir. Shu ma'noda, pedagogik shart-sharoitlar ta'lim imkoniyatlarining faollashuvi, rivojlanishi va amaliy natijaga aylanishi uchun zarur mexanik, ijtimoiy hamda psixologik poydevorni shakllantiradi [6].

Pedagogik shart-sharoitlarning imkoniyatlarga ta'siri, birinchidan, ta'lim jarayonini maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi. Agar ta'lim tashkilotida aniq maqsad va vazifalar, kompetensiyaviy natijalarni ko'zlovchi mazmun, modul va texnologiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa, mavjud pedagogik imkoniyatlar o'quv jarayonini tartibga soluvchi faol kuchga aylanadi. Bu holat o'quvchining rivojlanish dinamikasini boshqarish, uning mustaqil o'quv faoliyatini rag'batlantirish va

takomillashtirish uchun sharoit yaratadi [4].

Ikkinchidan, psixologik-pedagogik muhit pedagogik imkoniyatlarning ishonchli ishlashini ta'minlaydi. Sog'lom, qo'llab-quvvatlovchi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti mavjud bo'lganda, o'quvchi o'zining kognitiv, ijtimoiy, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini namoyon etish uchun yetarli zamin topadi. Aks holda, pedagogik imkoniyatlar mavjud bo'lsa ham, ular faol resurs sifatida ishlamay qoladi. Demak, muhit strategik jihatdan imkoniyatlarni amaliy holatga aylantiruvchi poydevor vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, pedagogik shart-sharoitlar pedagogik imkoniyatlarning barqarorligini ta'minlaydi. Moddiy-texnik baza, raqamli texnologiyalar vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli resurslar, o'quv laboratoriyalari va ishlab chiqarish amaliyoti kabi omillar mavjud bo'lmasa, ta'lim imkoniyatlari to'laonli amalga oshmaydi. Demak, shart-sharoitlar imkoniyatlarning real ko'rinishga aylanishi va takror ishlab chiqarilishi uchun zarur infratuzilmadir.

To'rtinchidan, pedagogik shart-sharoitlar metodik ta'minot orqali imkoniyatlarning mazmunan boyishini ta'minlaydi. O'quv dasturi, metodik qo'llanmalar, baholash mezonlari, modul bloklari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi pedagogik imkoniyatlarning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Natijada o'quvchi ongli ravishda o'quv jarayoniga jalb etiladi, ta'lim mazmuni esa real hayotiy vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi.

Beshinchidan, pedagogik shart-sharoitlar o'qituvchining kasbiy mahorati orqali pedagogik imkoniyatlarning samaradorligini oshiradi. Malakali, innovatsion yondasha oladigan, refleksiv madaniyatga ega o'qituvchi mavjud sharoitlardan oqilona foydalanadi, ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlarni kashf etadi va ularni o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo'naltiradi. Shu bois pedagogik imkoniyatlar o'qituvchi kompetensiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning natijadorligi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik va psixologik tayyorgarligiga tayanadi.

Oldinchi, pedagogik shart-sharoitlar motivatsion tizim orqali o'quvchi faoliyatini faollashtiradi. Rag'batlantirish mexanizmlari, refleksiya amaliyoti, jamoaviy va individual loyihalar o'quvchida kasbiy o'sishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantiradi. Bu esa pedagogik imkoniyatlarning o'quv faoliyatida amalga oshish darajasini oshiradi.

Xulosa. Pedagogik shart-sharoitlar pedagogik imkoniyatlarning mazmunan boyishi, amaliyotga tatbiq etilishi, barqarorligi va takomillashuvini ta'minlaydi. Imkoniyatlar potensial resurs bo'lsa, shart-sharoitlar uni faollashtiruvchi poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Demak, pedagogik shart-sharoitlar ta'lim jarayonida mavjud imkoniyatlarning ta'sir kuchini oshiradi, ulardan oqilona foydalanish uchun qulay ta'lim muhitini shakllantiradi hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan natijalarga erishishning muhim sharti sifatida qoraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kolb D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
2. Biggs J., Collis K. *Evaluating the Quality of Learning: The SOLO Taxonomy*. – New York: Academic Press, 1982. – 245 p.
3. Spencer L. M., Spencer S. M. *Competence at Work: Models for Superior Performance*. – New York: John Wiley & Sons, 1993. – 372 p.
4. Вербицкий А. А. Контекстно-компетентный подход в образовании. – Москва: МПСИ, 2017. – 212 с.
5. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результат современного образования // Педагогика. – 2006. – № 5. – С. 34–42.
6. Хуторской А. В. Компетентный подход в образовании: методология и практика. – Москва: Эйдос, 2003. – 256 с.
7. Монахов В. М. Методология проектирования и реализации педагогических технологий. – Москва: Академия, 2007. – 336 с.
8. Яковлев Е. В., Яковлева Н. О. Педагогические условия как фактор эффективности образовательного процесса: монография. – Челябинск: ЧГПУ, 2006. – 198 с.
9. Панфилова А. П. Инновационные педагогические технологии: активное обучение. – Москва: Академия, 2009. – 320 с.
10. Десятов В. И. Педагогические условия повышения эффективности учебной деятельности учащихся. – Москва: Педагогика, 2001. – 184 с.
11. Беляева А. П. Педагогические условия развития личности в образовательном процессе. – Москва: Академия, 2005. – 216 с.
12. Алиева М. В. Дидактические условия реализации образовательных технологий. – Москва: Высшая школа, 2008. – 204 с.
13. Muslimov N. A. Kasbiy ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 220 b.
14. Ismoilova Z. K. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash. – Toshkent: TDPU, 2021.
15. Begimqulov U. B. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik shart-sharoitlarni loyihalash: monografiya. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 240 b.
16. Begimqulov U. Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 240 b.